

7- Laboratoriya ishi

Mavzu: Maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar ko'ylagini konstruksiyasini kompyuter dasturi orqali qurish.

Ishni bajarishdan maqsad: Maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar ko'ylagini konstruksiyasini chizish uchun o'lchamlar olish, hisoblash va chizish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish va o'g'il bolalar ko'ylagini konstruksiyasini kompyuter dasturi orqali qurish.

Kerakli asbob-uskunalar: komputer, chizg'ichlar to'plami; moda jurnallari; qog'oz va qalam; texnologik xarita; mantimetrli lenta, ruletka; texnik shartlar yoki me'yoriy hujjatlar (GOST); qaychi, kalka qog'oz; gazlama namunalari katologi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI:

O'g'il bolalar ko'ylagini loyihalash.

O'g'il bolalar ko'ylagini loyihalash uchun quyidagi asosiy o'lchovlar va qo'shimchalar kerak bo'ladi.

$BnYaA = 14,5 \text{ sm}$

$Yeo'Ch = 15,3 \text{ sm}$

$KYaA = 32 \text{ sm}$

$YeK = 10 \text{ sm}$

$OrbU = 31 \text{ sm}$

$OlbU = 29 \text{ sm}$

$YelA = 19 \text{ sm}$

$KU = 45 \text{ sm}$

$OrK = 13,5 \text{ sm}$

$YeU = 39 \text{ sm}$

$OlK = 11,7 \text{ sm}$

$TU = 22 \text{ sm}$

Qo'shimchalar: $QK = 6—8 \text{ sm}$ bundan: $QorK = 1,5 \text{ sm}$ $QolK = 1 \text{ sm}$, $Qyeo' = 3,5 \text{ sm}$, $QyelA = 6—8 \text{ sm}$, $Qeo'Ch = 1,5—2 \text{ sm}$.

O'g'il bolalar ko'ylagining to'r qismi

1. To'g'ri burchak chizilib burchakka Bn nuqta qo'yiladi.
2. $BnBl = OrbU = 31 \text{ sm}$ (ort bo'lakdagi bel chizig'i).
3. $BnK = Yeo'Ch + Qyeo'Ch = 15,3 + (1,5—2) = 17,3 \text{ sm}$.
4. $BnE = KU = 45 \text{ sm}$ (ko'ylak uzunligi).
5. Bn, K, Bl, E nuqtalardan gorizontal chiziqlar o'tkaziladi.
6. $KK1 = KYaA + QK = 32 + (5—6) = 38 \text{ sm}$.
7. K1 nuqtadan pastga etak qismi bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va mos ravishda Bll, E1 nuqtalar bilan belgilanadi.
8. $Bll Bn1 = OlbU = 29 \text{ sm}$ (old bo'lakdagi bel chizig'i).
9. Bn1 nuqtadan chap tomonga gorizontal chiziq o'tkaziladi.
10. $KK2 = OrK + QorK = 13,5 + 1,5 = 15 \text{ sm}$ (orqa kenglikni aniqlovchi chiziq holati).
11. K2 nuqtadan bo'yin chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va kesishish nuqtasi a bilan belgilanadi.
12. $K2 K3 = YelA:3 + QyelA = 19:3 + 3,5 = 9,8 \text{ sm}$ (yeng o'mizi kengligi).
13. $K1 K3 = OlK + QolK = 11,7 + 1 = 12,7 \text{ sm}$ (old bo'lak kengligini aniqlovchi

chiziq).

14. K3 nuqtadan bo'yin chizig'i bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va kesishish nuqtasi a1 bilan belgilanadi.

15. $K2 K4 = K2 K3:2 = 9,8:2 = 4,9$ sm (yon chiziq).

16. K4 nuqtadan pastga etak bilan kesishguncha vertikal chiziq o'tkaziladi va B12, E2 nuqta bilan belgilanadi.

Ort bo'lak chizmasi (42-rasm)

17. $BnBn2 = BnYaA:3+1 = 14,5:3+1 = 5,8$ sm (bo'yin o'mizi kengligi).

18. $BnBn3 = BnBn2:3 = 5,8:3 = 1,9$ sm (bo'yin o'mizi chuqurligi).

19. Bn3, Bn2 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

20. $BlYe = OrbU = 31$ sm (yelka chizig'ini aniqlovchi nuqta).

21. Bn2 va E nuqtalar tutashtirilib o'ng tomonga davom ettiriladi.

22. $Bn2Ye1 = Ye1K+1,5 = 10 + 1,5 = 11,5$ sm (yelka uzunligi).

23. $Bn2v = 3$ sm (vitochkagacha bo'lgan oraliq).

24. v nuqtadan pastga o'rta chiziqqa parallel qilib vertikal chiziq o'tkaziladi.

25. $vv1 = 6$ sm (vitochka uzunligi).

26. $vv2 = 1,5$ sm (vitochka kengligi).

27. $v1 v2 = 6$ sm (vitochka ikkinchi tomon uzunligi).

28. v2 nuqtani Ye1 nuqta bilan tutashtiriladi.

29. $K2b = K2Ye:2$ (chizmadan olinadigan yordamchi nuqta).

30. $K2O = 2$ sm (bK2 K4 burchak bissektressasi).

31. Ye1, b, O, K4 nuqtalar ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi.

32. $E2 E3 = 1$ sm (etak qismining kengayishi).

33. K4 E3 nuqtalar chizg'ich yordamida tutashtiriladi.

